

ABU ISO TERMIZIY QABRTOSHI QAYERDA ?

Raxim Xudoyberdiyev ¹¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti+99899 420 23 07 r.xudoyberdiyev@dtpi.uzGavhar Chubalova ¹¹ Termiz arxeologiya muzeyi katta ilmiy xodimiMAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:29.05.2025

Revised: 30.05.2025

Accepted:31.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

“Kutubi sitta”,
Sherobod, “Ash-shamoil
an-nabaviyya”, Xonaqoh,
Hadis, Termiz, Buxoro,
Nishopur.

Ushbu maqolada Surxondaryo vohasidagi muqaddas ziyoratgohlaridan biri Islom olamining en yetuk zotlaridan biri Imom al-Buxoriyning suyukli shogirdi hamda mashhur muhaddis olim hayoti va faoliyati haqida alohida to'xtalib o'tiladi.

Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy va Termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish va xalqqa yetkazish o'ta muhim ishdur.

Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH. Muqaddas zaminimiz azaldan insoniyat tamadduni, ayniqsa, Islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' mutafakkirlarga beshik bo'lgan. IX asr hadis ilmining oltin davri sanaladi. Bu davrda yuzlab muhaddislar orasida yuqori martabaga erishgan olti ulug' imom eng mashhur hadis kitoblarini yozganlar. Bu asarlar Qur'oni karimdan keyingi eng ishonchli manbalardir. Mazkur “Kutubi sitta”, ya'ni “Eng sahih (eng to'g'ri)” olti hadis kitoblarining ikki muallifi vatandoshlarimiz Imom Termiziy

va Imom Buxoriydir. Buyuk ajdodlarimizning hayot yo'llari, ilm-fan va jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini sodda va ommabop usulda yoritib berish, Qur'on va uning tafsirlari, hadis to'plamlarini o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari hadisshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan va ko'plab nodir asarlar yaratilgan [1]. Islom olamida **"Sihohi sitta"** (Olti ishonchli to'plam) nomi bilan mashhur hadis kitoblaridan birining muallifi, buyuk muhaddis allomaning to'liq ismi – Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhoq as-Sulamiy al-Bug'iy at-Termiziy bo'lib, u hijriy 209 (mil. 824) yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tavallud topgan. Ibn Amirning qayd etishicha, Termizdan olti farsax (48 km) uzoqlikda joylashgan Bug' degan (hozirgi Sherobod shahridan 6 km sharqda joylashgan) qishloqda hijriy 279-yil 13 rajab/milodiy 892-yil 8-oktyabrda dushanba kuni vafot etgan. Abu Iso at-Termiziy yoshligidan ziyrak va aql-idrokli bo'lib, avval Termizda, keyin Buxoroda ta'lim olgan. U talabalik yillarida hadis ilmiga juda qiziqqan. Shunday qiziqish tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Yoshligidan ilm-fanga tashna bo'lgan Iso Termiziy 26 yoshidan boshlab, islom ta'limoti va hadisnavisligi bilan bir qatorda Makka, Madina, Iroq, Xuroson, Damashq kabi shaharlarda qiroat, bayon, fiqh, tarix va falakiyot kabi fan sohalarini o'rganib, yirik qomusiy olim darajasiga ko'tarilgan va ilm olamida taniqli kishiga aylangan. Abu Iso at-Termiziy Imom al-Buxoriyning shogirdi bo'lib, Qutayba ibn Said al-Bag'dodiy, Ali ibn Hajar, al-Marvaziy, Hannod ibn Sirriy al-Kufiy, Abu Kurayb Muhammad ibn Muso al-Basriy, Abdulloh ibn Abdurrahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy va boshqa ko'plab Iroq va Hijoz mashoyixlaridan ham ilm olgan[2]. O'z yurtlarida esa, Muhammad ibn Sahl al-G'azzol, Bakr ibn Muhammad ad-Dehqon, Abu Nazr ar-Rashodiy, Hammud ibn Shokir, an-Nasafiy, Abu-l-Abbos al-Mahbubiy, al-Marvaziy va Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy kabi zotlarga shogird tushib, hadis ilmini o'rgangan. Imom Termiziyning asarlari islom dunyosida mo'tabar hisoblanib, **"al-Jome' as-Sahih"** (Ishonchli to'plam), **"al-Jome' al-Kabir"** (Katta to'plam), **"Sahih at-Termiziy"**, **"Sunan at-Termiziy"** (Termiziy sunnatlari), **"ash-Shamoil an-nabaviya"** (Payg'ambarning alohida fazilatlar), **"Ulm al-hadis"** (Hadis ilmlari), **"al-Ilal fil-hadis"** (Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar) kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Yoshi qirqdan oshgan va turli mamlakatlar olimlaridan ta'lim olgan At-Termiziy xam Imom al-Buxoriy mashhur bo'lgan paytda yetuk olim darajasida tanilgan. Ikkala olim o'rtasida 863-868-yillar oralig'ida Nishopurda ko'pdan-ko'p samarali ilmiy munozaralar, samimiy do'stona uchrashuvlar bo'lgan. At-Termiziy o'z asarlari uchun ko'pgina foydali ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlarda olganligini yozadi. Abu Iso at-Termiziy asarlari hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Uning **"al-Jome as-saxih"**, **"Ash-**

shamoil an-nabaviyya” kabi asarlarida keltirilgan xadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Imom at-Termiziy 892-yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida vafot etgan. Imom Abu Iso at-Termiziy dafn etilgan yerda XI-XII asrlarda maqbara bunyod etiladi. Ushbu maqbara hozirda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan. 1990-yili Imom at-Termiziy tavalludining 1200-yilligi munosabati bilan yodgorlik majmuasi qaytadan ta‘mirlanib, ziyoratgohga aylantirildi.

Abu iso Termiziy maqbarasi - Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi me‘moriy yodgorlik (XI-XII asrlar). Abu Iso Muhammad Termiziy qabri ustiga qurilgan. Sag‘ana 3 pog‘onali, muqarnas naqsh va yozuvlar bilan pardoqlangan. Yodgorlik haqida ilk bor D. N. Logofet yo‘l ocherklarida tilga olgan. 1945-y. V. L. Voronina me‘moriy o‘lchamlarini bajargan. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan maqbarada ta‘mirlash ishlari olib borildi. Hadis ilmining buyuk asoschilaridan biri, islom dunyosi hadisshunosligida Imom Buxoriydan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi alloma, ko‘plab asarlar muallifi, muhaddis olim Iso Termiziy (X-XI) ziyoratgohi **Sherobod tumani** sharqiy tomoni, ya‘ni olti kilometr masofadagi **Yaxtiyo‘l** qishlog‘i hududidagi qabriston yonida joylashgan. Islom olamida oltita mashhur muhaddislardan biri bo‘lgan Iso Termiziy (209\824 – 279\892) maqbarasi alloma vafotidan 150-yil o‘tgach, hozirgi Sherobod shahri yaqinidagi qabr ustiga ko‘tarilgan. Iso Termiziy qabri ustidagi maqbarani XV asr o‘rtalarida Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li Abdulatif ta‘mirlatgani haqida ma‘lumotlar mavjud. Bu maqbara Sherobod shahridan janubiy-sharqda joylashgan bo‘lib, to‘rt hadli binodan tashkil topgan. 2000-2001-yillarda majmua epigrafik materiallarning barchasi qayta ta‘mirlandi. Deyarli barcha bitiklar xivalik usta Sohbnazar Shomurodov tomonidan amalga oshirilgan. 2001-yilning 5-martida qabrtoshiga kulrang paralleloliped-sandiqsimon ko‘rinishga ega bo‘lgan marmar sag‘ana o‘rnatildi. Uni navoyilik usta Hamdam Ahrorxo‘ja yasagan. Tosh G‘azg‘on marmar konidan keltirilgan. Uning uzunligi 189 sm, kengligi 93 sm, balandligi esa 125 sm dir. Sag‘ana shakli va dekoratsiyasi keyingi Temuriylar va Shayboniylar davrlariga o‘xshash sag‘analariga taqlidan yasalgan paralleloliped-sandiqsimon ko‘rinishga ega bo‘lgan marmar sag‘ana o‘rnatildi. Uni Navoyilik usta Hamdam Ahrorxo‘ja yasagan. Tosh G‘azg‘on marmar konidan keltirilgan. Uning uzunligi 189 sm, kengligi 93 sm, balandligi esa 125 smdir. 2000-2001-yillarda Termiz shahrining 2500-yilligi munosabati bilan alloma maqbarasi yana qaytadan ta‘mirlangan. 2016-yil 5-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Abu Iso Termiziy majmuasi hududida qurilish va obodonlashtirish ishlarini olib borish to‘g‘risida”gi 1/377-sonli qarori qabul qilindi. Shu munosabat bilan, 2016-yil avgust oyidan boshlab,

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi, Sherobod tuman hokimligi rahbarligida ziyoratgohda ta'mirlash ishlari olib borildi. Ta'mirlash jaroyonida 1990-yilda o'rnatilgan Imom Termiziyning qabrtoshi 2017-yilda Termiz arxeologiya muzeyiga olib kelindi. Jami oltita bo'lakdan iborat qabrtosh bugungi kunda mazkur muzeydagi ayvon osti galereyasida namoyish etib kelinmoqda. Surxondaryo viloyatida "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevralda qarori chiqdi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uvatov U, O.Jo'rayev. "Imom Termiziy". (Buyuk termiziylar.)– Toshkent: "Shamsuddinxon Boboxonov" NMIU, 2021. – 104 b.
2. S.Jurayeva. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari. Monografiya. Toshkent. "O'zbekitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi".
3. Buyuk yurt allomalari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: U.Uvatov. T.: O'zbekiston,2018.
4. Doktor Tohir Azhar Xaziriy. Tarjimonlar: S. Siddiqov, J. Shodiyev, U. Mirsodiqov. Imom Termiziyning "Al-Jomi' as-sahih" asariga kirish. – T.: "Movarounnahr", 2017
5. Jaloliddin Hamroqulov. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. – T.: "Movarounnahr", 2017.